

3- Ma'ruza: O'zbekiston Respublikasida chegaralangan xolda tarqalgan karantin organizmlar

Reja

1. Xitoy urug'xo'ri bioekologiyasi va qarshi kurash choralari
2. **Япон таёқчасимон қалқондори** bioekologiyasi va karshi kurash choralari

Tarqalishi. Xitoy urugxuri- Buyuk Britaniya, Gretsiya, Italiya, Frantsiya, Afg'oniston, Birma, Xindiston, Indoneziya, Eron, Xitoy, Tur-kiya, Laos Pokiston, Suriya, YAroniya, Misr, Keniya, Senegal, Sudan, Kuba, Meksika, AKSH, YAmayka, Avstraliya davlatlarida tarkalgan.

MDX da x.isobga olinmagan. MDX ning yevropa kismida, Kavkazda va O'rta Osiyoga tarkalib, muxitga moslashib zarar yetka-zishi mumkin.

Zararlanadigan o'simliklar: soya, mosh, loviya, oddiy nuxat, xashaki dukkaklilar, nut va boshkalar.

Daladagi ekinlarni zararlaydi, asosan kuchli zararlanish omborxonalarda kuzatiladi. Mosh dukkagini deyarli tulik ichini yeb fa kat pusti (kobigi) koladi.

Imago. Tanasi kizgish-jigarrang, qisqa ovalsimon, deyarli to'g'ri burchakli, uzunligi 2,5 mm, eni 1,6 mm.

Erkaklarning mo'ylovlari taroksimon, uzun bo'ladi. Urg'ochilarini mo'ylovlari esa arrasimon kizg'ish-koramtir rangda. Ustki kanoti uzaygan turtburchakli och-jigarrangda. pigidiysi (ket kismi) tik, ok mayda tukchalar bilan koplangan.

Tuxumi ovalsimon, 0,4 x 0,6 mm; yangi kuyilgan tuxumlar shaffof. Lichinka chikkandan keyin tuxum kobigi rangi qo'ng'ir bo'ladi.

Lichinkasi ok, uzunligi 4 mm gacha 1 yoshda uch juft 2 bo'g'imli oyogi bo'ladi. Po'st tashlagandan keyin lichinkalar yug'on bukilgan oyoksiz xolda bo'ladi.

G'umbagi uzunligi 2,5 mm, sarg'ish-ok rangda, erkin tipda.

Rivojlanishi to'xtovsiz ravishda bo'ladi. Qo'ng'izlar xayotining davomiyligi o'rtacha 12 kundan 36 kungacha bo'ladi.

Urg'ochi qo'ng'izlar quruq uruqqa (donga, dukkakka) yoki pishgan dukkaklarga o'rtacha 60 ta tuxum qo'yadi. Tuxumlarini dukkakka yopishtirib, dona-dona kilib kuyadi. Bir dukkak yoki donga 30-60 tagacha tuxum qo'yishi mumkin.


Bitta donda bir necha lichinka rivojlanib, xamda imago berishi mumkin. Lichinkalar 3 marta pust tashlaydi va zararlagan urug ichida g'umbakka aylanadi. Rumbakdan qo'ng'izlar chikkandan keyin kobig sinib, tushib ketadi. Hamma davrlarini rivojlanishi xaroratga boglik bulib, 45 kundan 196 kungacha cho'zilishi mumkin.

Kishda rivojlanishi 3-4 oyga chuziladi. Bir yilda Xitoy urug'xo'r qo'ng'izi (donxuri) AKSHda 6-8 ta, Tayvanda 10 ta avlod beradi. Xitoy urug'xo'r qo'ng'izi hamma rivojlanish fazalarida urug'lik va dukkaklari orkali tarkaladi.

Karantin tadbirlar. Karantin ostidagi materiallarni tekshirish va ekspertiza qilish. Don-dukaklilarni rengenografiya orkali zararlanganligi yoki aksinchaligini aniqlash.

Zararlangan partiyani eksportyorlarga qaytarish yoki kameralarda brommetil bilan zararsizlantirish. Yoki zararlangan maxsulotlarni zararkunanda moslasha olmaydigan xududlarda qayta ishlash. Ilmiy-tekshirish maqsadlarida oz mikdordagi don-dukaklarni rengenoekspertizadan o'tkazib, brommetil bilan zararsizlantirib, keyin foydalanish.

Vaktincha saqlanayotgan eksport kilingan qishloq xo'jalik maxsulotlarini omborlarda tekshirish. Agarzararlanish aniqlansa, tezdayo'q qilish.(1,2)



Rasm-2. Xitoy urug'xo'ri. 1. Qo'ng'izi. 2. Tuxumi. 3. Lichinkasi. 4. G'umbagi. 5. Qo'ng'izining yon tomondan ko'rinishi. 6. Dukkakli ekin urug'idagi tuxumlari.

Япон таёқчасимон қалқондори – *Lopholeucaspis japonica* Ckll.

Тенг қанотлилар (Homoptera) туркуми, қалқондорлар (Diaspididae) oilasiga mansub tur hisoblanadi.

Осиёнинг- Афғонистон, Бангладеш, Бирма, Ҳиндистон, Хитой, Корея, Покистон, Туркия, Япония; Шимолий Американинг- АҚШ; Жанубий Американинг – Бразилия давлатида тарқалган.

Зарари - япон таёқчасимон қалқондори - цитрус экинлари, хурмо, олма, нок, олча, охўри, анжир, атиргул, заранг ва бошқа ўсимликларга зарар келтиради. Урғочиси ва личинкаси ўсимлик ширасини сўради. Кучли тарқалган дарахтлар қуриydi.

Янги жойларга тушган қалқондор поя, новдаларва ёш шохларни атрофини тўлиқ қоплайди ва зич колониялар ҳосил қилган ҳолда қисқа вақт ичида жуда тез кўпая бошлайди, ҳамда мева ва баргларни зарарлайди.

Бу каби зарарланган дарархтларни нафақат ҳосили кучли зарарланади виа шу билан бирга 3 - 4 йилдан кейин дарахтларни қуришига олиб келади. Айниқса цитрус экинлари бунга мисол бўлади. Узоқ шарқда тарқалган ушбу зараркунанда ҳарорат 20 - 25⁰ С да эркин қишлаб чиқади.

Бу эса Ставропол ва Краснодар ўлкаси, Молдова, Озарбайжон, Украина ҳамда Ўрта Осиё республикаларининг мевали боғлар экилган худудларга тасодифан қелиб қолганда у тўғридан- тўғри иқлимлаша олиши мумкин.

Таёқчасимон қалқондорни ватани Япония ёки Ҳитой бўлиши эхтимоли бор. Бир қатор Осиё давлатларида, АҚШда ва Бразилияда тарқалган. Ҳамдўстлик давлатларидан – Грузия ва Краснодар ва Приморе ўлкасини ёввойи флорасида тарқалган кўчатлар орқали ўтиши мумкин. Бундан ташқари четдан келтирилаётган мева ва цитрус ўсимлиги шохлари ва бошқа ўсимликлар асосий сабаб бўлади.

Урғочисини танаси чўзиқ, бош ва кўкрак олди ва орқасидан иборат сегментлашмаган олдинги бўғимга ажралган, ўрта кўкрак ва олдинги кўкрак ҳамда қориндан иборат, сегментлашган бўлими аниқ билиниб туради. Мўйлови редукцияланган бўлиб, ажралмаган бўртма кўринишида бўлади ва кўз ҳамда оёқлари йўқ.

Пигидияни охирги чети буралган, юмалоқ. Уни икки жуфт бўлаклари яхши ривожланган. Одатда улар ўткир ёки ички ва ташқи томони ўйикдан иборат. Биринчи жуфт бўлак медиал пигидияни ўрта қисмида жойлашган бўлиб, ўлчами бўйича катта. Иккинчи жуфт бўлак эса биринчисига ўхшаш, лекин ўлчами бўйича кичик. Бўлақлар орасида тароқчалар бўлади. Шунингдек медиал бўлак орасида иккита тароқ жойлашган. Шундан биринчи ва иккинчисини орасида иккитаси икки жуфт бўлакда жойлашган бўлиб, янада ҳам кўпроқ қисқа, қилсимон, тароқчали конуссимон шаклида давом этади ва оғиз аппарати учигача етиб боради.

Урғочисининг узунлиги 1 мм.га яқин; қалқон узунлиги 1,6 – 1,8 мм, эни 0,5 – 0,6 мм. Урғочисининг қалқони ноксимон кўринишда, тиниқ кулранг, узунчоқ, деярли ён томони паралелл, охирги қисми бироз кенгайган.

Урғочиси пупария деб номланувчи деб юритилади, бунда личинка териси бўлиб қолади ва личинка терисини намоён қилади. Шунинг учун ҳам урғочисини қалқони таркибида фақат битта личинка териси бўлади, лекин бошқа қалқондорлар каби иккита эмас.

Тухуми узунчоқ, ясси, тиниқ сиёхрангда.

Личинкани биринчи ёшдагилари ясси, теккис, тиниқ - сиёхранг тусда, сочсимон каби ингичка, узун ҳартуми бор. Унинг ёрдамида озикланади: кўзи оддий. Оёқлари яхши ривожланган. Қорнини охирги бўғими иккита узун тукдан иборат. У кулранг тиниқ, чўзиқ, битта личинка терисидан иборат,

кисқа бошли конуссимон қалқонли. Етук урғочи зотни иккинчи ёшдаги личинкадан вагинал ёриқ ва циркументал йўқлиги билан фарқ қилади. Пигидияли бўлакчаси қисқа ва кенг.

Иккинчи ёшдаги личинкасининг қалқони урғочиларининг қалқонига ўхшайди ва танаси узунчоқ яссисимон ва иккинчи ёшдаги эркак личинкаси урғочисидан танаси чўзиқ ва ясси бўлиши ҳисобига фарқ қилади. Бош қисмида пигмент доғли кўздан иборат. Етук зоти танаси бош, кўкрак, кориндан иборат. Мўйлови 10 бўғимли қилчадан иборат. Оғиз органлари йўқ.

Биологик хоссалари. Япон таёқчасимон қалқондори қалқон остида дарахт пўстлоғида ва боғларда иккинчи ёшдаги личинка босқичида қишлаб чиқади. Бахор фаслининг охирида личинка етук урғоси зотга айланади, кейинроқ тухум қўйишга киришади. Ҳар бири қалқон остига ўртача 35 - 60 тага етказиб тухум қўяди. Тухумдан чиқиши билан ва қалқон остидан ташқарига юра бошлайди. Дайди личинка ундан бир неча ўн сантиметр узок масофага тарқалади. Дайдилар хартуми билан ўсимликка ёпишиб олади. Қалқондор барглар бўйлаб тарқалади ва баргни юқори пластинкасини асосий томир ёнига ва барг четидаги тишлари бўйлаб жойлашади. Шунингдек дарахт шохи, пўстлоқларида, пояларида ва мева танасида учраши мумкин. Приморе ўлкасида - япон таёқчасимон қалқондори битта авлод беради.

Карантин ишларини олиб бориш ва қарши кураш. Зараркунанда кўплаб тарқалган мамлакатлардан, уруғ ва экиш учун мўлжалланган кўчатларни Ўзбекистонга келтириш ман этилади.

Селлекция ва илмий тадқиқот ишлари интродукцион карантин кўчатзорларда қайта текширилади ва зараркунанда борлиги аниқлангандан сўнг улар йиғиб олинади ва куйдирилади.

Четдан экиш учун келтириладиган материаллар, импорт-карантин инспекцияси томонидан рухсати бўлиши керак. Хўжаликларда тарқалган кўчатларни келтиришдан олдин фақат рухсат этилган фумигаторлар билан зарарсизлантирилади. Хўжаликлар учун аҳамиятли бўлмаган ўсимликлар зараланганда уларни тўғридан тўғри қирқиб ташланади ва ёқиб юборилади. Мевалар тўлиқ териб олингандан сўнг қалқондор иккинчи ёшда бўлган бўлади ва дарархтлар фумигация қилинади. Ўсимликлар ўсув даврида зараркунандага қарши - препарат № 30, 76 % нефт мойли эм. 20,0-50,0 л/га; фазолон, 35 % эм. к. (Б) 4,0-5,0 л/га каби препаратлар пуркалади.

Саволлар.

3. Xitoy urug' xo'ri nechta avlod beradi?
4. Yapon tayoqchasimon qalqondirining zarari qanday?